

*Источник и список литературы*

1. Cox D. Success in elements of banking. - London: John Murray, 1979. - 271 p.;
2. Modigliani F., Fabozzi F.J., Ferri M.G. Foundations of financial markets and institutions. - New Jersey 61, 1997. - 497 p.;
3. Palfreman D. Elements of banking. Philip Ford. - 2nd ed. - London: Pitman, 1988. - 660 p.;
4. Роуз П.С. Банковский менеджмент. Пер. с англ. - Москва: Дело, 1997. - 743 с.;
5. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. - Москва: Альпина Бизнес Букс, 2007. - 1018 с.
6. Балабанов И.Т. Банки и банковское дело / Под ред. И.Т. Балабанова. - Санкт-Петербург: Питер, 2002. - 304 с.;
7. Жарковская Е.П. Банковское дело. - Москва: Омега-Л, 2004. - 440 с.;
8. Лаврушин О.И. Банковское дело: учебник. / Под ред. О.И. Лаврушина. - 3-е изд. - Москва: Кнорус, 2005. - 766 с.;
9. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. - Москва: МКЦ ДИС, 1997. - 464 с.;
10. Мустафаев З.Б. Банк маркетинги - молия бозори шаклланиши асоси: и.ф.н. ... диссертацияси. - Т.: ТДИУ, 1998. - 142 б.
11. Мирзамайдинов Б. К. Банк хизматида маркетинг самарадорлиги: (Ўзбекистон ташқи иқтисодий фаолият миллий банки мисолида) и.ф.н. ... диссертацияси. -Т.: ТДИУ, 2008. - 152 б.
12. Аллаёрова Д.Н. Эффективность маркетинга банков Республики Узбекистан. дис. ... канд. экон. наук. -Т., 2009. - 166 с.
13. Статистические данные Центрального банка Республики Узбекистан. Квартальные отчеты за 2019-2020 годы. <https://cbu.uz/uz/statistics/buletin/134396/>

## **TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DEPOZIT SIYOSATINI ISHLAB CHIQUISH VA JORIY ETISHNING XALQARO AMALIYOTI**

**Shermuxe'dov Bexzodjon Usmonovich -  
Toshkent moliya institute "Iqtisodiyot" kafedrasida PhD, dotsent v.b**

**Аннотация:** Maqolada mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan olib borilayotgan depozit siyosatini amaldagi holati tahlil qilingan. Tahlil jarayonida depozit siyosatini amalga oshirish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning tizimli rivojlanish xususiyatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, tijorat banklarining depozit siyosatini takomillashtirishda ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan IT tizimi va boshqa yo'nalishlar bilan bog'liq shart-sharoitlar va imkoniyatlar baholangan. Tijorat banklarining depozit siyosatini rivojlantirish instrumentlardan maqsadli foydalanish tizimini tashkil etishga doir umumiy xulosalar asosida tijorat banklarining kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, tijorat banklarining depozit faoliyatini amalga oshirish strategiyasi va taktikasini ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchligini mustahkamlashga yo'naltirish bilan bog'liq ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

**Таянч со'злар:** depozit, depozit siyosati, depozit portfeli, depozit operatsiyalari, kreditorlik qarzlari, kapitallashuv darajasi, depozit bazasi, davlat aktivlari, investitsion resurs, qayta moliyalashtirish stavkasi

**Аннотация:** В данной статье проведён анализ текущего состояния проводимой коммерческими банками нашей страны депозитной политики. В ходе анализа исследованы особенности системного развития факторов, влияющих на процесс реализации депозитной политики. А также оценены условия и возможности, связанные с использованием информационных систем и других направлений передовой международной практики по совершенствованию депозитной политики коммерческих банков. На основе обобщённых выводов по организации системы целевого использования инструментов развития депозитной политики коммерческих банков сформулированы научные предложения и практические рекомендации по повышению уровня капитализации и депозитной базы коммерческих банков, по направлению стратегии и тактики осуществления депозитной деятельности коммерческих банков на укрепление их финансовой устойчивости и надёжности.

**Ключевые слова:** депозит, депозитная политика, депозитный портфель, депозитные операции, кредиторская задолженность, уровень капитализации, депозитная база, государственные активы, инвестиционные ресурсы, ставка рефинансирования.

**Annotation:** The current state of the depozit policy of commercial banks of our country was analyzed in this article. During the analysis the peculiarities of systemic development of factors influencing on the process of depozit policy implementation were investigated. Also the conditions and opportunities of using of information systems and other directions of international best practice for improving the depozit policy of commercial banks were assessed. Based on the total conclusions on the organization of the system of targeted using of instruments for the development of depozit policy of commercial banks, scientific proposals and practical recommendations were developed to increase the level of capitalization and depozit base of commercial banks, to direct the strategy and tactics of depozit activity of commercial banks to strengthen their financial stability and reliability.

**Key words:** depozit, depozit policy, depozit portfolio, depozit transactions, accounts payable, capitalization level, depozit base, state assets, investment resources, refinancing rate.

**Kirish.** Jahon amaliyotida bank depozit siyosatini ishlab chiqish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, Smart-

banking tizimida faoliyat yurituvchi bank bo'limlari orqali innovatsion depozit xizmatlarini ko'rsatish, bank tizimini rivojlantirish borasidagi

strategik dasturlar bilan depozit siyosatining o'zaro muvofiqligi va uzviyligini ta'minlash, depozit siyosatini ishlab chiqish uslubiyati va uni amalga oshirish instrumentlarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar chuqur tadqiq etilgan. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda depozit siyosatini shakllantirish bo'yicha bank faoliyatini rivojlantirish strategiyasining tarkibiy qismi sifatida, shuningdek, depozit siyosatining yakuniy, oraliq va operatsion maqsadlarini belgilashda istiqbolga yo'naltirilish (forward looking approach) masalalari e'tibordan chetda qolayotganligi bu borada tadqiqotlarni faollashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Mazkur maqolada depozit siyosatini ishlab chiqish bo'yicha xorij tajribasini AQSh tijorat banklari misolida ko'rib chiqamiz.

AQShda investitsiya qilinadigan yoki jamg'ariladigan pullarning umumiy miqdori ma'lum bir tuman yoki mintaqa uchun cheklangan, shuning uchun tijorat banklari majburiyatlarini boshqarish deb nomlangan boshqaruv strategiyasiga murojaat qilishadi. Keng ma'noda ushbu strategiya mijozlarning yuqori sifatli kreditlarga bo'lgan talablarini qondirish va banklar tomonidan zaxira talablarini bajarish uchun boshqa moliya institutlardan pul mablag'larini olish nazarda tutiladi. Tor ma'noda javobgarlikni boshqarish bankning likvidligini boshqarish usullaridan biri hisoblanadi.

AQSh banklari ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur mablag'larni quyidagi yo'llar orqali jalb etishadi:

- federal fondlarning mahalliy bozoridan va Evro valyutalar bozoridan qarz olish;
- mijozlarga qisqa muddatli kapital bozori depozit sertifikatlarini sotish;
- mintaqaviy Federal zaxira bankidan olingan kreditlar;
- jismoniy va yuridik shaxslar bilan ma'lum vaqtga ortiqcha pul mablag'larini qaytarib sotib olish to'g'risida shartnoma tuzish;
- xolding kompaniyasi tarkibiga kiruvchi filial orqali veksellarni chiqarish.

AQSh banklari uchun mahalliy kredit manbai sifatida federal fondlar bozori hisoblanadi. Ushbu mablag'lar federal zaxira banklarida saqlanadigan omonatlardir. Tijorat banklari kutilmagan depozit oqimlari yoki kreditlar hajmining kamayishi natijasida daromad keltirmaydigan ortiqcha zaxiralarni shakllantirishlari mumkin. Shuning uchun, ularga ega bo'lgan ba'zi banklar kerakli miqdordagi zaxiralarni tiklash yoki ularni aktivlarga investitsiya qilish uchun mablag'ga muhtoj bo'lgan boshqa banklarga qisqa vaqt ichi-

da berishadi.

Bizga ma'lumki, 1991-yilda AQShda "Federal Depozitlarni sug'urtalash korporatsiyasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qabul qilindi. Bu qonun bilan Federal Depozitlarni sug'urtalash korporatsiyasiga Moliya vazirligidan 15 yil muddatga 30 mlrd. dollar miqdorida kredit olishga ruxsat berildi. Shuningdek, Federal Depozitlarni sug'urtalash korporatsiyasi Moliya vazirligidan bankrot banklarning aktivlarini sotishdan tushgan mablag'lar evaziga aylanma mablag'larni to'ldirish uchun 45 mlrd. dollargacha bo'lgan miqdorda kredit olish huquqiga ega bo'ldi.

Omonatlarni sug'urtalash tizimining paydo bo'lishi kichik sarmoyadorlarning omonatlari va tranzaksion hisobvaraqlarini himoya qilish, shuningdek, bank tizimini barqarorlashtirishga yordam berdi. Kichik sarmoyadorlar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga omonatlarning qaytarilishi bo'yicha kafolatlarni taqdim etilishi adolatlidir. Chunki kichik sarmoyadorlar uchun kredit tashkilotlarining to'lov qobilligi to'g'risidagi ma'lumotlarning narxi, yiriklarga qaraganda ancha yuqori hisoblanadi. Kichik sarmoyadorlarning ma'lumotlari yetarli emasligi sababli, ba'zida ularning moliyaviy ahvolidan qat'iy nazar, o'zlari-ning omonatlarini tezda qaytarishga moyildirlar.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Yuqorida keltirilgan mulohazalar, shuningdek, tizimli tadqiqotlar sohasining mashhur vakillari bo'lgan L.fon Bertalanfi, S.Bir, J.van Gig, R.Akoff, S.Optner va boshqa olimlar[2] tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyaga tayangan holda tijorat banklari depozit siyosatining tarkibiy elementlarini aniqlashga harakat qilamiz. Fikrimizcha ushbu tarkibiy elementlar quyidagilardan iborat:

1. Maqsadni aniqlash. Birinchi navbatda bank faoliyatini rivojlantirish strategiyasi doirasida depozit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish nima uchun zarurligini aniqlash talab etiladi. Bunda bosh e'tibor depozit siyosatini takomillashtirish yoki optimallashtirishdan ko'zlangan maqsadni belgilab olishga qaratilishi lozim.

2. Maqsadga erishishga to'sqinlik qiluvchi muammolar va ularni yuzaga keltirgan omillarni aniqlash. Istalgan muammoni shakllantiruvchi omillarning aksariyat qismi bank faoliyati tashqi muhitida yuzaga keladi. Tashqi muhit omillari ta'siri doirasida muammolarning bir qismi bankning ichki muhitida u yoki bu ko'rinishda o'z aksini topadi. Bundan kelib chiqqan holda muammoni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash va baholashda faqat "sabab-oqibat" tamoyili bilan cheklanmasdan, taniqli amerikalik olim E.A.Singer tomonidan taklif etilgan "ishlab chiqaruvchi-mah-

sulot” tamoyili qo’llanilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

3. Maqsadga erishishni ta’minlovchi vositalar va mexanizmlarni aniqlash. Depozit siyosatini ishlab chiqish, amalga oshirish va takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan deyarli barcha muammolar fundamental, ya’ni nazariy va uslubiy xususiyatga ega. Depozit siyosatining nazariy va uslubiy asoslarini chuqur o’rganish tegishli vositalar va mexanizmlar tanlovini amalga oshirishda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

4. Maqsadga erishish dasturini ishlab chiqish. Ushbu dastur mohiyatan depozit siyosatini amalga oshirish bo’yicha tadbirlar majmuasi hamda ularni amalga oshirish bo’yicha “yo’l xaritasi”dan iborat.

5. Depozit siyosatini amalga oshirish dasturi doirasida amalga oshiriladigan operatsiyalarning turlari va protseduralarini ishlab chiqish. Bunda asosiy e’tibor qonunchilik normalari, me’yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya qilinishi, shuningdek, sifat menejmenti ISO 9000:2015 talablariga mos kelishiga qaratilishi lozim.

6. Operatsiyalar va protseduralarni amalga oshirishda monitoring va nazorat tizimini ishlab chiqish. Monitoring va nazorat funktsiyalari bankning alohida olingan organlari ixtiyorida jamlangan bo’lsa, mazkur funktsiyalarni amalga oshirish bo’yicha maxsus ichki bank hujjati ishlab chiqilishi shart emas.

7. Bank faoliyatini rivojlantirish strategiyasida depozit siyosatiga nisbatan qo’yilgan talablarning bajarilishi darajasi va samaradorligini

baholash hamda mazkur yo’nalishga bevosita va bilvosita aloqador xodimlar faoliyatini rag’batlantirish (yoki jazolash) tizimini ishlab chiqish.

Maqolamizda mamlakatimizning strategik hamkorlaridan biri hisoblanuvchi Qozog’iston Respublikasi bank tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning depozitlari faoliyati, shuningdek, mamlakatning eng yirik banki hisoblanuvchi Xalq banki tomonidan depozit siyosatini amalga oshirishning joriy holatini tahlil etish orqali undagi asosiy tendentsiyalarni aniqlashga harakat qilamiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada tijorat banklari tomonidan depozit siyosatining amalga oshirishning joriy holati tahlil qilinib, bank resurs bazasining barqarorligiga ta’sir etuvchi omillar aniqlangan. Tahlil jarayonida ilmiy abstraktsiyalash, ekspert baholash, induksiya va deduktsiya, taqqoslash, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Qozog’iston Respublikasi Milliy banki ma’lumotlariga ko’ra, 2018-yil yakuniga kelib, Respublikada 28 tijorat banki va bank operatsiyalarining alohida turlari bilan shug’ullanuvchi 7 tashkilot faoliyat yuritgan. 2017-yil davomida 5 tijorat banki o’z faoliyatini tugatgan. Ulardan. Bu davirda «Kazinvestbank», «Delta Bank» va «Qazaq Banki» tegishli sudlar qarori asosida faoliyatini to’xtatgan bo’lsa, «Bank Astana» va «Eksimbank Kazaxstan» AJlarning faoliyatini olib borish bo’yicha litsenziyalari Milliy bank tomonidan qaytarib olingan [3].

1-jadval

**Qozog’iston Respublikasi tijorat banklari jamlanma balansi dinamikasi [4], (mln.tenge)**

Ko’rsatkichlar	01.01. 2015 yil	01.01. 2016 yil	01.01. 2017 yil	01.01. 2018 yil	01.01. 2019 yil
<b>Jamlanma balans</b>	<b>18 239 255</b>	<b>23 784 427</b>	<b>25 561 157</b>	<b>24 220 516</b>	<b>25 240 959</b>
Yil yakunida AQSh dollari / tenge kursi	182,35	339,47	333,29	332,33	384,20
AQSh dollarida ifodalangan jamlanma balans	100 023	70 063	76 693	72 881	65 697
Mijozlarga ajratilgan kredit va lizing	10 360 923	13 764 673	13 662 143	11 034 734	11 632 369
Kredit operatsiyalarining salmog’i, %	56,8	57,9	53,4	45,5	46,1
Mijozlar oldidagi majburiyatlar	11 430 551	15 829 587	17 471 404	16 779 346	17 164 724
Muddatli jamg’armalar	272 278	432 201	261 517	145 665	140 654
<b>Jami depozitlar</b>	<b>11 702 829</b>	<b>16 261 788</b>	<b>17 732 921</b>	<b>16 925 011</b>	<b>17 305 378</b>
Depozitlarsalmog’i, %	64,2	68,4	69,4	69,9	68,6
Depozitlar va kreditlar o’rtasidagi nisbat, %	112,9	118,1	129,8	153,4	148,8
Bank kapitali jami	2 359 682	2 494 486	2 844 859	3 091 036	3 017 554
Bank kapitalining balansdagi salmog’i, %	12,9	10,8	11,2	12,7	11,9
Muomalaga chiqarilgan qimmatli qog’ozlar	1 215 103	2 100 933	1 778 127	1 321 077	1 665 143

Jadval ma’lumotlaridan ko’rinadiki, 2018-yil yakuniga kelib, Qozog’iston Respublikasi bank sektorida jamlanma balansi 25 240 959 mln.tengeni yoki yil yakunidagi tengening AQSh dollariga nisbatan shakllangan kursi bo’yicha 65 697 mln.

AQSh dollarini tashkil etgan. Banklarning jamlanma balansi 2014-yildagiga nisbatan 7 001 704 mln.tengega yoki 138,4 foizga ko’paygan. Ammo AQSh dollarida ifodalangan balans hajmi 2014-yildagiga nisbatan 34 326 mln.AQSh dollariga

kamaygan.

Tahlil davrida jismoniy va yuridik shaxslarning milliy va xorijiy valyutada jalb etilgan depozitlari hajmi kupayish tendentsiyasini namoyon etgan. Jumladan, bank sektoriga jalb etilgan depozitlar hajmi 2014-yilda 11 702 829 mln.tenge bo'lgan bo'lsa, 2018-yil yakunida depozit hisobvaraqlari qoldig'i 17 305 378 mln.tengeni tashkil etgan. Bunga mos ravishda jamlanma balansdagi depozitlar salmog'i 2014-yildagi 64,2 foizdan 2018 yilga kelib, 68,6 foizgacha oshgan. Tijorat banklarining depozit portfelida xorijiy valyutada omonatlar hajmi ko'payish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Xususan, 2018-yil yakuniga kelib, yuridik shaxslarning AQSh dollarida ochilgan depozitlari salmog'i 49,3 foizni tashkil etib, 2017-yildagiga nisbatan 5,5 foiz punktga ko'paygan. Jismoniy shaxslarning depozitlari bo'yicha aksincha holat kuzatilgan: 2017-yilda AQSh dollarida ochilgan depozitlarning jami depozitlardagi salmog'i 52,2 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 2018 yil yakunlariga ko'ra 47,4 foizga tashkil etgan yoki 4,8 foiz punktga kamaygan. 2018-yilda yuridik shaxslarning milliy valyutadagi muddatli depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari 7,1 foizni (2017 yilda 8,0 foiz) jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari bo'yicha 10,4 foizni (2017 yilda 11,7 foiz) tashkil etgan.

Bank tizimiga jalb etilgan depozitlar hajmining oshib borishi tijorat banklarining resurs bazasini nisbatan arzon va uzoq muddatli moliyaviy mablag'lar bilan mustahkamlash imkoniyatini bergan. 2018 yil yakunida yuridik shaxslarga taqdim etilgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalari 11,7 foizni (2018 yilda o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 12,4 foizni tashkil etib, 2017 yila nisbatan 1,2 foiz punktga pasaygan), jismoniy shaxslar ajratilgan kreditlar bo'yicha foiz stavkasi 17,2 foizni (2018 yilda o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 18,5 foiz, 2017 yilda 18,8 foiz, kamayish 0,3 foiz punkti) tashkil etgan. Shu bilan bir qator banklarning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanuvchi depozitlar va kreditlar o'rtasidagi nisbat talab darajasida bo'lgan. Xususan, mazkur ko'rsatkich 2014 yilda 112,9 foizga bo'lgan bo'lsa, 2017 yilda 153,4 foizni, 2018 yilda 148,8 foizni tashkil etgan.

Tijorat banklarining jamlanma balansidagi xususiy kapitalning salmog'i bank nazorati bo'yicha xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan o'rnatilgan me'yorlarga mos darajada bo'lgan; 2018 yil yakunida 11,9 foizni tashkil etgan.

Shuni e'tiborga olish zarurki, fikrimizcha Qozog'iston Respublikasi Milliy banki aholining vaqtinchalik bo'sh mablag'larini tijorat banklari

va boshqa tashkilotlar orqali jalb etish bo'yicha kutilmagan qarorlarni qabul qilib bormoqda. Xususan, 2017 yilning may oyida aholiga oltin quymalarini sotish yo'lga qo'yilgan. 2018 yilning noyabr oyidan nafaqat tijorat banklari, shuningdek, naqd xorijiy valyuta bilan ishlash vakolatiga ega bo'lgan tashkilotlar ham oltin savdosi bilan shug'ullana boshlashgan. 2018 yil yakuniga kelib, sotuvga chiqarilgan oltin quymalari 5 turda bo'lgan: 5,10,20,50 va 100 gramm. Milliy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2018 yilda aholiga 151 kilogramm vazndagi 3 962 oltin quyma 3 mlrd. tengega sotilgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, Qozog'iston Respublikasi bank sektorida depozit operatsiyalarini amalga oshirish yo'nalishida mavjud bo'lgan quyidagi asosiy tendentsiyalarni qayd etish mumkin:

birinchidan, jalb etilgan depozitlarning diyarli yarmi AQSh dollarida ekanligi bank sektori depozit portfelida dollarlashuv darajasi oshib borishiga olib kelgan. Bu asosan makroiqtisodiy omillar (milliy valyuta kursining pasayishi, aholi va biznes sub'ektlarining inflyatsion kutilmalari, ma'lum jihatdan Berliner samarasining (amerika-lik olim Djozef Sh. Berliner tomonidan qayd etilgan) ta'siri va boshqalar) ta'siri doirasida yuz berayotgan bo'lsada, bank tizimi faoliyatida jiddiy risklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari depozitlarning dollarlashuv darjasining oshib borishi milliy valyutada ifodalangan pul massasa miqdorini kamaytirgan holda markaziy banklar tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati transmission mexanizmi foiz kanali faoliyati samaradorligini pasaytirib yuboradi. Bu depozitlarning dollashuv darjasining oshib borishi markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi (hisob stavkasi)ning depozitlar va kreditlar bo'yicha o'rnatilayotgan foiz stavkalariga ta'siri kuchsizlanishida o'z aksini topadi;

ikkinchidan, Qozog'istonda inflyatsiya darajasining 2017 yildan boshlab pasayib borishi (2014 yilda 4,59 foiz, 2015 yilda 7,54 foiz, 2016 yilda 14,32 foiz, 2017 yilda 7,76 foiz va 2018 yilda 7,01 foiz), shuningdek, 2015 yildan joriy etilgan Milliy bank bazaviy stavkasining pasaytirilishi (2014 yil yakunida qayta moliyalashtirish stavkasi 12 foiz, 2015 yil yakunida bazaviy stavka 16 foiz, 2016 yilda 12 foiz, 2017 yilda 10,25 foiz, 2018 yilda 9,25 foiz) milliy valyutadagi omonatlarning jozibardorligi darajasi oshirilishiga olib kelmadi. Milliy valyuta kursidagi barqarorlik mavjud emasligi, shuningdek, global iqtisodiyotdagi tebranishlar darajasi kattali (xususan, FZT tomonidan 2018 yilda bazaviy stavkaning ko'tari-

lishi hisobiga Milliy bank strategik portfelining daromadlilik darajasi -0,37 foizni tashkil etgan) aholi va biznes sub'ektlari uchun xorijiy valyutaga bo'lgan e'tiborni oshiruvchi omil bo'lib qolmoqda. Bunday holatda markaziy banklarga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, pul-kredit siyosati transmission mexanizmining foiz kanali samaradorligini oshirish, milliy valyuta kursi barqarorligani ta'minlash, moliya bozorini rivojlantirish borasida ta'sirchan tizimli tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq;

Qozog'iston bank sektoridagi vaziyatni

baholash bo'yicha tahlil, fikrimizcha, alohida tijorat bankida depozit siyosati olib borilishi bo'yicha yuzaga kelgan vaziyatni dinamik tahlil bilan davom ettirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tahlil ob'ekti sifatida 647 ta xizmat ko'rsatish markazlari, depozitlar bozorida 37,8 foiz, jumladan muddatli depozitlar bo'yicha 42,2 foizni, talab qilgunga qadar saqlanadigan depozitlar bo'yicha 42,2 foizlik salmoqqa ega bo'lgan AJ «Qozog'iston xalq banki» (keyingi o'rinlarda AJ «Xalq banki») olindi.

**2-jadval**

**«Qozog'iston Xalq banki» AJning 2015-2019 yillardagi balans ko'rsatkichlari dinamikasi  
(1 yanvar holatiga) [5], (mln.tenge)**

Ko'rsatkichlar	01.01.2015 yil	01.01.2016 yil	01.01.2017 yil	01.01.2018 yil	01.01.2019 yil
Jami aktivlar	2 506 414 (16 269 \$)	2 809 782 (15 406 \$)	4 454 938 (13 123 \$)	8 857 781 (26 654 \$)	8 959 024 (23 319 \$)
Ajratilgan kreditlar	1 482 245 (9 621 \$)	1 648 013 (9 038 \$)	2 176 069 (6 410 \$)	3 251 102 (9 783 \$)	3 481 048 (9 061 \$)
Jami depozitlar	1 766 648 (11 467 \$)	1 848 213 (10 136 \$)	3 043 371 (8 966 \$)	6 131 750 (18 451 \$)	6 526 930 (16 988 \$)
Chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlari	189 515 (1 230 \$)	311 009 (1 706 \$)	597 525 (1 760 \$)	962 396 (2 896 \$)	900 791 (2 345 \$)
Xususiy kapital	392 179 (2 546 \$)	475 221 (2 606 \$)	529 928 (1 561 \$)	934 457 (2 812 \$)	1 065 646 (2 774 \$)
Kredit tashkilotlarining mablag'lari*	107 395 (697 \$)	107 192 (588 \$)	168 258 (496 \$)	255 151 (768 \$)	168 379 (438 \$)

*Izoh:* \*Kredit tashkilotlarining mablag'lari ko'rsatkichi tarkibiga ichki va tashqi manbalardan jalb etilgan qarzlar kiritiladi.

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, AJ «Qozog'iston xalq banki» balansi 2019-yilning 1-yanvardagi holatiga 8 959 024 mln.tenge yoki 23 319 mln.AQSh dollarini tashkil etgan va 2016-yilning 1-yanvariga (2 809 782 mln. tengge yoki 15 406 mln. AQSh dollari) nisbatan milliy valyutadagi hisobda 3,2 barobarga, AQSh dollari ekvivalentida 51,4 foizga ko'paygan. Mazkur davrda jismoniy va yuridik shaxslar depozitlarining milliy valyuta hisobidagi hajmi 2015-yildagi [6] 1 648 013 mln.tengedan 2018-yil yakuniga kelib, 6 526 930 mln.tengegacha, AQSh dollari ekvivalentida 10 136 mln. AQSh dollaridan 16 988 mln. AQSh dollarigacha oshgan.

Depozitlarning bank balansidagi salmog'i 2018 yil yakunida 78,2 foiz bo'lib, bu 2015-yildagi nisbatan (65,7 foiz) 12,5 foiz punktga ko'p, demakdir. Jalb etilgan depozitlar hajmi o'sib borishi bilan bir qatorda bankning xususiy kapitali miqdori o'sish tendentsiyasini namoyon etgan. Xususan, 2015-yil yakunida xususiy kapital hajmi milliy valyuta hisobida 475 221 mln. tengeni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yil oxiriga kelib, 1 065 646 mln.tengegacha oshgan. Ammo

xususiy kapitalning AQSh dollari ekvivalentidagi summasi 2 606 mln. AQSh dollaridan 2 774 mln.AQSh dollarigacha kamaygan.

Bankning resurs bazasida depozitlar bilan bir qatorda muomalaga chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlari uchinchi o'rinni egallagan holda 2019-yil 1-yanvar holatiga 900 791 mln.tengeni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich 2015-yilda 311 009 mln. tengega teng bo'lgan. Ichki va tashqi manbalardan jalb etilgan qarz mablag'lari (hamkor banklarning vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lari qoldig'ini hisobga olgan holda) 2015-yildagi 107 192 mln.tengedan 2018-yilda 168 379 mln. tengecha ko'paygan. Ammo ularning bank balansidagi salmog'i (2018-yilda 1,9 foiz) ahamiyatli darajada katta emas. Shunga qaramasdan ularning foiz stavkalari ancha jozibali ko'rinadi. 2018-yil davomida jalb etilgan qarz mablag'lari bo'yicha foiz stavkalari yillik 2-7 foiz diapazonida bo'lgan.

Fikrimizcha, AJ Xalq bankida depozit siyosatining joriy holati yuzasidan ma'lum xulosalarni qayd etishdan oldin bank depozit portfeli tarkibiy tuzilmasini tahlil etish maqsadga muvofiq.

«Xalq banki» AJ depozitlari 2015-2018 yillardagi tarkibiy tuzilmasi dinamikasi [7], (mln. teng)

Ko'rsatkichlar	01.01.2015 yil	01.01.2016 yil	01.01.2017 yil	01.01.2018 yil	01.01.2019 yil
Muddatli depozitlar jami	1 145 475	2 145 442	2 738 125	4 397 857	4 292 662
jumladan					
- jismoniy shaxslar	764 935	1 276 609	1 470 536	2 691 886	2 918 070
- yuridik shaxslar	380 810	868 833	1 267 589	1 705 971	1 374 592
Joriy depozitlar jami	702 468	898 289	1 062 537	1 733 893	2 234 268
jumladan					
- jismoniy shaxslar	173 264	196 821	244 912	413 363	477 520
- yuridik shaxslar	529 204	701 468	837 625	1 321 530	1 756 748
Jami depozitlar	1 848 213	3 043 731	3 820 662	6 131 750	6 526 930

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, AJ «Xalq banki» depozit portfelida yuridik va jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari asosiy o'rinni egallab, doimiy o'sish tendentsiyasiga ega. Xususan, 2014-yil yakunida muddatli depozitlarning umumiy hajmi 1 145 475 mln.tengeni, shundan jismoniy shaxslarning depozitlari 764 935 mln.tengeni (66,7 foiz) tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilga kelib, ushbu turdagi depozitlar hajmi 4 292 662 mln.tengeni, shundan jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari 2 918 070 mln.tengeni (67,9 foiz) tashkil etgan. Jami depozitlar tarkibida muddatli depozitlar salmog'i 2018-yil yakunida 65,8 foizga teng bo'lgan va 2014-yildagiga nisbatan 3,9 foiz punktga ko'paygan.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlil natijalariga asoslanga holda Qozoiston bank tizimi va alohida olingan banklar uchun xususiyatli bo'lgan quyidagi omillarni qayd etish mumkin:

- bank sektorida jamlangan depozitlarning «dollarlashuv» darajasining oshib borishi, markaziy bank pul kredit siyosatining samaradorligini pasaytiruvchi omillardan biri bo'lishi bilan bir qatorda tijorat banklari tomonidan nazorat ostiga olinmaydigan global va valyutaviy risklar darajasini oshirib yubormoqda. Ayni paytda milliy valyutaning asosiy xorijiy valyutalar kursida ma'lum barqarorlikning mavjud emasligi, aholi va biznes sub'ektlari tomonidan omonat valyutasini tanlashda xorijiy valyutalarga ustuvorlik berilishiga olib kelmoqda;

- depozitlar tarkibida muddatli depozitlar salmog'ining oshib borishi aholi va biznes sub'ektlarining bank tizimiga bo'lgan ishonchi darajasini bildiradi. Tijorat banklarida ochilgan muddatli depozitlar hajmining ko'payishi banklarning kreditlash imkoniyatlarini kengaytirgan holda moliyaviy barqarorlik holatiga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Shu bilan bir qatorda depozitlar va kreditlar o'rtasidagi nisbatning oshib borishi tashqi ta'sir omillarini engillashtiradi. Bu esa, o'z navbatida milliy iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amal-

ga oshirishda ijobiy ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa va takliflar.** Tijorat banklari depozit strategiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga qo'llashda tijorat banklari depozit bazasining barqarorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan bo'sh turgan pul mablag'larini depozit operatsiyalariga jalb qilish va banklarning resurs bazasini yanada mustahkamlash maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

- Muddatli depozitlarga ustuvorlik berilishi hisobiga bankning depozit siyosatida yuzaga kelgan disproportsiyalarni bartaraf etish, shuningdek, mijozlarni bo'sh pul mablag'larini bank plastik kartochkalariga jalb etish orqali ularning resurs bazasidagi salmog'ini oshirish maqsadida depozit siyosatida alohida olingan depozitlarga ustuvorlik berish amaliyotidan voz kechish lozim, shuningdek, ular o'rtasidagi muvozanatni saqlash mexanizmini joriy etish hamda plastik kartochkalar orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishda "ichki moliyaviy aylanmalar" tizimini yaratish maqsadga muvofiq.

- yuridik va jismoniy shaxslardan jalb qilingan depozitlar miqdorini sezilarli darajada oshirib borish;

- aktsiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etilgan barcha tijorat banklarining ustav kapitalida xorijiy investorlar ishtirokini bosqichma-bosqich ta'minlash choralari ko'rish;

- aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini uzoq muddatli depozitlarga jalb qilish hamda innovatsion depozit dasturlarini ishlab chiqish;

MDX mamlakatlari tijorat banklari depozit portfelining tahlili depozitlarning "dollarlashuv" darajasining oshib borishi tendentsiyasi kuzatilyotganligi hamda milliy valyutaning asosiy xorijiy valyutalarga nisbatan kursida ma'lum barqarorlikning mavjud emasligi, shuningdek, aholi va biz-

nes sub'ektlari tomonidan omonat valyutasini tanlashda xorijiy valyutalarga ustuvorlik berilmoqda;

depozitlarning dollarlashuv darjasining oshib borishi milliy valyutada ifodalangan pul massasa miqdorini kamaytirgan holda Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati transmission mexanizmining foiz kanali faoliyati samaradorligini pasaytirib yubormoqda. Ushbu salbiy holat Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasining depozit va kreditlar bo'yicha o'rnatilayotgan foiz stavkalariga ta'sirini kuchsizlanishida o'z aksini topmoqda;

tijorat banklari depozit siyosatini takomillashtirish yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlar natijasida sohada mavjud bo'lgan bir qator muammolar aniqlandi va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar majmua si ishlab chiqildi. Xususan, depozit siyosati va bank faoliyatini rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalar o'rtasidagi uzviy aloqadorlik-

ning mavjud emasligi, depozit siyosatini amalga oshirish bo'yicha ichki bank me'yoriy hujjatlarida kombinatsiyalangan xizmatlarning kiritilmaganligi, bank faoliyatiga koronavirus pandemiyasida davrida dolzarb hisoblanuvchi innovatsion depozit turlarining joriy etilishidagi kamchiliklar, banklarning depozit bazasini mustahkamlashda qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanilmaganligi kabi muammolar banklar tomonidan olib borilayotgan depozit siyosatining samaradorligiga salbiy ta'sir o'tkazib kelmoqda.

Qayd etilgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar bilan bir qatorda, depozit siyosatining yangi tarkibiy tuzilmasi va uni amaliy faoliyatga joriy etish mexanizmi ishlab chiqilgan. Shu bilan bir qatorda, depozit siyosatining samaradorligini baholash maqsadida depozit hisob-raqamlarida saqlanayotgan mablag'larning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan indikatorlar tizimi taklif etilgan.

**Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bank sohasida strategiya ijrosi va transformatsiya jarayoni muhokama qilindi 2020 yil 6 iyul Uza.Uz
2. Akoff R. Planirovanie budushchego korporatsii. M., Progress, 1985; Bertalanfi L. fon. Razlichnie podxodi k obshchey teorii sistem. Sistemnie issledovaniya, ejegodnik. M.: Nauka, 1969; S. Bir. Mozg firmi: Per. s angl. - M.: Radio i svyaz, 1993; J.van Gig. Prikladnaya obshchaya teoriya sistem. per s angl. M: Mir.1981; Optner S. Sistemniy analiz dlya resheniya delovix i promishlennix problem: per s angl. -M: Sovetskoe radio.1972
3. <https://nationalbank.kz/ma'lumotlari/asosida/tayyorlandi>
4. <https://nationalbank.kz/ma'lumotlari/asosida/tayyorlandi>.
5. <https://halykbank.kz/about-bank/investoram/ma'lumotlari/asosida/muallif/tomonidan/tayyorlandi>.
6. 2015 yilda Qozog'iston Milliy banki pul-kredit siyosatiga kiritilgan o'zgartirishlar bank faoliyati natijalarni baholash tiziminin o'zgarishiga olib kelgan. Buni e'tiborga olgan holda tahlil 2015 yil yakunlari bilan taqqoslash asosida amalga oshirildi.
7. Qozog'iston AJ «xalq banki» ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

**РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИНГ РИВОЖЛАНИШИНИ БАНК МОЛИЯВИЙ ХИЗМАТЛАРИДАГИ АҲАМИЯТИ**

**и.ф.н., доц. Азларова Азиза Ахроровна -  
“Банк иши ва инвестициялар” кафедраси доценти**

**Аннотация.** Мақолада рақамли иқтисодиётнинг ривожланишини молиявий хизматлардаги аҳамияти назарий жихатдан таҳлил қилинган. Хусусан, Ўзбекистонда банкларнинг трансформация жараёнларини жадаллаштиришнинг ҳуқуқий асосларини ва амалий жараёнлари ўрганилган.

**Калит сўзлар:** банк, рақамли иқтисодиёт, трансформация, банк хизматлари, инновация, масофавий банк хизматлари.

**Аннотация.** В статье анализируются теоретические аспекты важности развития цифровой экономики в сфере финансовых услуг. В частности, были изучены правовые основы и практические процессы для ускорения трансформации банков в Узбекистане.

**Ключевые слова:** банковское дело, цифровая экономика, трансформация, банковские услуги, инновации, дистанционное банковское обслуживание.

**Annotation.** The article analyzes the theoretical aspects of the importance of the development of the digital economy in the field of financial services. In particular, the legal framework and practical processes were studied to accelerate the transformation of banks in Uzbekistan.

**Key words:** banking, digital economy, transformation, banking services, innovation, remote banking.

**Кириш.** Бугунги кунда республикамизда рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши

натijasида, тижорат банкларининг янги инновацион электрон хизматларига талаби яна-